



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№7(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 146 sahifa,  
1-iyul, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....                          | 10 |
| <i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>   |    |
| Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....  | 16 |
| <i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>  |    |
| Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....                       | 19 |
| <i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>  |    |
| Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....  | 24 |
| <i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>  |    |
| O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....   | 27 |
| <i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>   |    |
| Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....                                     | 31 |
| <i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>  |    |
| Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....  | 35 |
| <i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>   |    |
| O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....  | 39 |
| <i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>   |    |
| Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....   | 43 |
| <i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>  |    |
| Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....   | 49 |
| <i>Alibekova Mahzuna</i>   |    |
| Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54  | 54 |
| <i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>  |    |
| Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....  | 59 |
| <i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>   |    |
| Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....   | 64 |
| <i>Ruzmetova D. A.</i>   |    |
| Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....   | 68 |
| <i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>  |    |
| Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....                | 75 |
| <i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>   |    |
| Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....  | 79 |
| <i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>  |    |
| Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....                               | 86 |
| <i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>   |    |
| Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....   | 90 |
| <i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>   |    |
| Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies..... | 94 |
| <i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>   |    |



|   |     |
|---|-----|
| Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari .....          | 102 |
| <i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>  |     |
| Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili .....  | 110 |
| <i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari .....                    | 115 |
| <i>Go'zal Qurbonova</i>   |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....            | 121 |
| <i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>   |     |
| Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....     | 126 |
| <i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>   |     |
| Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi .....  | 130 |
| <i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>  |     |
| Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida)..... | 133 |
| <i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>   |     |
| Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей .....                       | 136 |
| <i>Багдасарова Диана Левоновна</i>  |     |
| Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся .....                           | 141 |
| <i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>  |     |

# XALQARO VA MILLIY BAHOLASH DASTURLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI YANGI TA'LIM TRENDLARI BILAN BOYITISH

Gulmira Abdullayeva

Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası assistenti

Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi

Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a filiali  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich ta'lim mazmunini xalqaro (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS) va milliy baholash dasturlari natijalari asosida zamonaviy ta'lim trendlari bilan boyitish masalalari tahlil qilingan. Funktsional savodxonlikka yo'naltirilgan baholash tizimlari bilan an'anaviy mazmuniy yondashuv o'rtasidagi nomutanosiblik aniqlanib, ushbu muammoni bartaraf etishning STEAM integratsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, mezonli (kriterial) baholash hamda raqamli didaktika kabi yo'nalishlari asoslangan. Tadqiqotda me'yoriy hujjatlar tahlili, qiyosiy va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Olingan xulosalar boshlang'ich sinf o'quv dasturlarini xalqaro tadqiqotlar talablariga moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ta'lim mazmuni, xalqaro baholash dasturlari, PISA, TIMSS, PIRLS, milliy baholash tizimi, funktsional savodxonlik, STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy yondashuv.

**Abstract:** This article examines the enrichment of primary education content with new educational trends in light of international (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS) and national assessment programs. A gap is identified between the traditional content-based approach and assessment systems oriented toward functional literacy. Directions for addressing this gap are substantiated, including STEAM integration, the competency-based approach, criterion-referenced assessment, and digital didactics. The study applies analysis of normative documents together with comparative and generalization methods.

**Key words:** primary education, educational content, international assessment programs, PISA, TIMSS, PIRLS, national assessment system, functional literacy, STEAM approach, competency-based approach.

**Аннотация:** В статье анализируются вопросы обогащения содержания начального образования новыми образовательными тенденциями с учётом результатов международных (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS) и национальных программ оценивания. Выявлено несоответствие между традиционным содержательным подходом и системами оценивания, ориентированными на функциональную грамотность. Обоснованы такие направления, как интеграция STEAM, компетентностный подход, критериальное оценивание и цифровая дидактика. В исследовании применены анализ нормативных документов, сравнительный и обобщающий методы.

**Ключевые слова:** начальное образование, содержание образования, международные программы оценивания, PISA, TIMSS, PIRLS, национальная система оценивания, функциональная грамотность, STEAM-подход, компетентностный подход.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sifatini xolisona aniqlashning eng ishonchli mezonlaridan biri xalqaro baholash dasturlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son<sup>1</sup> qaroriga muvofiq, mamlakatimizda PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish hamda ta'lim sifatini baholash bo'yicha milliy tizim yaratish vazifalari belgilangan. PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini, TIMSS esa matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim sifatini

1 <https://lex.uz/docs/-4097073>



xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradi. Ushbu dasturlarning umumiy xususiyati shundaki, ular o'quvchidan nazariy bilimni mexanik takrorlashni emas, balki bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, ya'ni funksional savodxonlikni talab qiladi.

Shu bilan birga, boshlang'ich ta'lim mazmuni ko'pincha mavzularni izchil bayon etishga qaratilgan an'anaviy tuzilishni saqlab qolmoqda, bu esa xalqaro baholash dasturlarining kompetensiyaviy talablari bilan to'liq mos kelmaydi. Mazkur nomutanosiblik o'quvchilarning xalqaro tadqiqotlardagi natijalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim mazmunini xalqaro va milliy baholash dasturlari talablarini hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim trendlari, jumladan, STEAM integratsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, mezonli baholash va raqamli didaktika asosida boyitish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ham mazkur muammoning davlat siyosati darajasidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Konsepsiyada ta'lim mazmunini xalqaro andozalar asosida yangilash, o'quv dasturlarini kompetensiyaviy negizda qayta ishlab chiqish hamda pedagog kadrlarning malakasini xalqaro talablarga moslashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Bu vazifalarning samarali bajarilishi, avvalo, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlanishi lozim, chunki o'quvchining keyingi bosqichlardagi funksional savodxonligi aynan shu davrda shakllanadigan asosiy ko'nikmalarga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang'ich ta'lim mazmunini xalqaro va milliy baholash dasturlari talablari asosida boyitishning ilmiy-nazariy va amaliy-metodik yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro baholash dasturlarining milliy ta'lim tizimiga tatbiq etilishi masalasi bir qator tadqiqotlarda o'rganilgan. Jumladan, PISA dasturini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishning nazariy jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotda mamlakatimizning 2030-yilgacha PISA reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirish vazifasi qo'yilgani va bu maqsadga erishish uchun ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangilash zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

G. Xolmatova va F. Orziqulova o'z tadqiqotlarida PISA, TIMSS, PIRLS dasturlarining mazmuni, maqsadi va o'tkazilish metodologiyasini tahlil qilib, ularni o'quv dasturlariga amalda tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydilar. Ushbu qarash ta'lim mazmunini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham xalqaro talablarga moslashtirish lozimligini ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'lim trendlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda STEAM yondashuvining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Texnologiya fanini STEAM-ta'lim asosida o'qitish mohiyatiga bag'ishlangan ishda ushbu yondashuvning fanlararo integratsiyaga, ijodiy va loyihaviy faoliyatga asoslanganligi yoritilgan.

N. Babayeva va K. Tulenova esa STEM-ta'limni o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishning muhim vositasi sifatida tavsiflaydilar.

Didaktika nazariyasi bo'yicha tadqiqotlarda zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va raqamli didaktika tushunchalari ustuvor o'rin egallayotgani, baholashda esa monitoring va refleksiya vositalariga e'tibor kuchayganligi qayd etiladi. O'quvchilarning individual o'quv natijalarini baholashga bag'ishlangan tadqiqotda an'anaviy besh balli tizimning xolislik nuqtayi nazaridan cheklanganligi, mezonlarga asoslangan baholash esa o'quvchining aniq bilim va ko'nikmalarini obyektiv aniqlash imkonini berishi asoslangan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro baholash dasturlari talablari, STEAM va kompetensiyaviy yondashuv hamda mezonli baholash masalalari ilmiy adabiyotda alohida-alohida o'rganilgan, biroq ularning boshlang'ich ta'lim mazmunini boyitishning yaxlit yo'nalishi sifatida tizimli tahlili hozircha yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Shuningdek, ta'lim mazmuni va sifatini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarida boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishda zamonaviy metodikalardan foydalanish, ta'lim mazmunini jahon tajribasi asosida boyitish hamda natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish masalalari muhokama qilingan. Bu materiallarda ta'kidlanishicha, ta'lim mazmunini yangilash alohida olingan mavzular darajasida emas, balki butun o'quv dasturi miqyosida, ya'ni mavzular o'rtasidagi mazmuniy va metodik bog'liqlikni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Aks holda ayrim mavzularga STEAM yoki kompetensiyaviy yondashuv elementlari kiritilsa-da, umumiy o'quv dasturi xalqaro baholash dasturlari mantig'idan uzilib qolishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 997-son<sup>2</sup> qarorini hamda xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS) bo'yicha rasmiy materiallarni tahlil qilish tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali xalqaro baholash dasturlarining mazmuniy yo'nalishlari aniqlandi, qiyoslash metodi yordamida an'anaviy ta'lim mazmuni bilan xalqaro tadqiqotlar talab qiladigan kompetensiyalar o'rtasidagi farqlar ko'rsatildi. Umumlashtirish metodi esa boshlang'ich ta'lim mazmunini boyitishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi. Birinchi, nazariy-tahliliy bosqichda xalqaro baholash dasturlarining mazmuniy doirasi (PIRLS bo'yicha o'qish savodxonligi sohalari, TIMSS bo'yicha matematik va tabiiy-ilmiy mazmun yo'nalishlari) hamda mavjud boshlang'ich sinf o'quv dasturlarining mazmuniy tarkibi qiyosiy tarzda o'rganildi. Ikkinchi, umumlashtiruvchi bosqichda esa ushbu qiyosiy tahlil natijalari zamonaviy ta'lim trendlari, xususan, STEAM, kompetensiyaviy yondashuv, mezonli baholash va raqamli didaktika nuqtayi nazaridan sintez qilindi hamda ta'lim mazmunini boyitishning amaliy yo'nalishlari shakllantirildi. Bunday ikki bosqichli yondashuv tadqiqot natijalarining ham nazariy asoslanganligini, ham amaliy yo'naltirilganligini ta'minlashga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim mazmunini xalqaro va milliy baholash dasturlari talablarini hisobga olgan holda boyitish bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

*Birinchidan*, o'quv dasturlari mazmuniga PIRLS talab qiladigan matnni chuqur tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini, TIMSS talab qiladigan amaliy-matematik fikrlash topshiriqlarini integratsiya qilish zarur. Bu o'quvchilarni faqat nazariy bilimni emas, balki bilimni hayotiy vaziyatda qo'llashga o'rgatadi.

*Ikkinchidan*, STEAM yondashuvini boshlang'ich sinf fanlararo loyiha topshiriqlari shaklida joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda matematik, tabiiy-ilmiy va texnologik bilimlar bitta amaliy vazifa doirasida birlashtiriladi, natijada o'quvchida tizimli fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalari rivojlanadi.

*Uchinchidan*, ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish, ya'ni har bir mavzu yakunida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan aniq bilim, ko'nikma va malakalarni belgilash zarur. Bu yondashuv xalqaro baholash dasturlarining natijaga yo'naltirilgan mantig'i bilan uyg'unlashadi.

*To'rtinchidan*, an'anaviy besh balli baholash tizimini mezonli (kriterial) baholash bilan to'ldirish lozim. Mezonli baholash o'quvchining aniq qaysi bilim va ko'nikma asosida baholanayotganini oldindan belgilashga imkon beradi, bu esa xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan obyektiv baholash mezonlariga yaqinlashtiradi.

*Beshinchidan*, raqamli didaktika imkoniyatlaridan, jumladan, elektron platformalar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish o'quvchining mustaqil ishlash va o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sanab o'tilgan yo'nalishlarning barchasi parchalanmagan, yaxlit tizim sifatida amalga oshirilgandagina samara beradi. Faqat bitta yo'nalish, masalan, STEAM topshiriqlarini joriy etish, mezonli baholash bilan birga olib borilmasa, o'quvchining real o'zlashtirish darajasini xolisona aniqlash qiyinlashadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim mazmunini boyitish mazmuniy yangilanish, metodik yondashuvlarni o'zgartirish va baholash tizimini takomillashtirishning o'zaro bog'liq jarayoni sifatida olib borilishi kerak.

Olingan natijalarning amaliyotga tatbiq etilishi uchun yana ikki muhim shart mavjud. Birinchidan, darslik va o'quv-metodik majmualar mazmunini yangilash zarur, chunki mavjud darsliklarning ko'pchiligi nazariy bilimni bayon etishga qaratilgan an'anaviy tuzilishni saqlab qolmoqda va ularda funksional savodxonlikni rivojlantiruvchi amaliy-vaziyatli topshiriqlar yetarli emas. Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini xalqaro baholash dasturlari mantig'iga moslashtirish, ya'ni ularni STEAM topshiriqlarini loyihalashtirish, mezonli baholash vositalarini ishlab chiqish va raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha tizimli malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash lozim.

Shu bilan birga, ta'lim mazmunini boyitish jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan STEAM topshiriqlari murakkab nazariy tushunchalarga emas, balki o'yin va amaliy faoliyat orqali bilim olishga asoslanishi, mezonli baholash mezonlari esa o'quvchi uchun tushunarli va aniq tilda ifodalanishi kerak. Aks holda xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni o'quvchi uchun ortiqcha yuklamaga aylanib, ta'lim motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, ta'lim mazmunini boyitish bir vaqtning o'zida ham xalqaro talablarga, ham milliy ta'lim tizimining yosh xususiyatlarini hisobga oluvchi tamoyillariga mos kelishi shart.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4097073>



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim mazmunini xalqaro (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS) va milliy baholash dasturlari natijalarini hisobga olgan holda boyitish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Tadqiqot natijalari ta'lim mazmunini funksional savodxonlikka yo'naltirilgan topshiriqlar bilan to'ldirish, STEAM yondashuvini fanlararo integratsiya vositasi sifatida joriy etish, kompetensiyaviy yondashuvga o'tish, mezonli baholash tizimini kengaytirish hamda raqamli didaktika vositalaridan foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu yo'nalishlarni yaxlit holda amalga oshirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat milliy, balki xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarini ham sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun esa boshlang'ich sinf darsliklarini xalqaro baholash dasturlari mazmuniy doirasiga moslashtirish bo'yicha aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, ishlab chiqilgan yondashuvlarning amaliyotdagi samaradorligini eksperimental tarzda tekshirish dolzarb yo'nalish hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. // lex.uz.
2. Babayeva N.B., Tulenova K.J. STEM-education as a basis for the formation of creative thinking // "Natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limni joriy etish tendensiyalari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2024, b. 29.
3. Didaktik ta'lim nazariyasi: mazmuni, vazifalari va zamonaviy yondashuvlar // CyberLeninka ilmiy elektron kutubxonasi.
4. O'quvchilarning individual o'quv natijalarini baholashga zamonaviy yondashuvlar // ResearchGate, 2024.
5. PISA xalqaro baholash dasturini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishning nazariy jihatlari // Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации - Society and innovations, 2023.
6. Texnologiya fanini "STEAM-ta'lim" yondashuvi asosida o'qitishning mohiyati va afzalliklari // Jamiyat va innovatsiyalar - Общество и инновации – Society and innovations, 2022.
7. To'raqulov A.R. Ta'limda STEAM yondashuv // International Journal of Research and Science (IJRS).
8. Xolmatova G.I., Orziqulova F.J. Xalqaro baholash dasturlari va ularni amalda qo'llash usullari // International Journal of Science, 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.